

MARKAZIY OSIYO XALQLARIDA TO'Y BILAN BOG'LIK
URF-ODATLAR

Aziza Umarova, 2-son politexnikum o'qituvchisi
Sayxunobod tumani, Sirdaryo viloyati, O'zbekiston

Annotatsiya. Maqolada Markaziy Osiyo va Qozog'iston xalqlarining to'y bilan bog'liq bo'lgan urf-odatlar va marosimlari tahlil qilinmoqda. Kopchilik urf-odatlar va an'analar qadimgi diniy qarashlar bilan bog'liqligi ta'kidlanmoqda.

Kalit so'zlar: etnos, to'y, nikoh, urf-odatlar, marosim, to'y bosqichlari, diniy e'tiqod.

WEDDING RITES AMONG THE PEOPLES OF CENTRAL ASIA

Aziza Umarova, teacher of Polytechnic No. 2,
Sayxunabad district, Syrdarya region, Uzbekistan

Abstract. The article analyzes the rites and rituals associated with the wedding of the peoples of Central Asia and Kazakhstan. It is emphasized that many rites and traditions are associated with ancient religious beliefs.

Key words: ethnicity, wedding, marriage, rites, ritual, stages of the wedding, religious belief.

ОБРЯДЫ, СВЯЗАННЫЕ СО СВАДЬБОЙ У НАРОДОВ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Азиза Умарова, преподаватель Политехникума №2,
Сайхунабадский район, Сырдарьинская область, Узбекистан

Аннотация. В статье анализируются обряды и ритуалы, связанные со свадьбой у народов Центральной Азии и Казахстан. Подчеркивается, что многие обряды и традиции связаны с древними религиозными воззрениями.

Ключевые слова: этнос, свадьба, брак, обряды, ритуал, этапы свадьбы, религиозное верование.

Kirish. Nikoh to'ylari o'zining turli marosimlar, an'analarga boyligi, etnografik manbalarining rang-barangligi bilan alohida ajralib turadi. Markaziy Osiyo va Qozog'iston xalqlari nikoh to'ylari oilaviy turmush va ma'naviy madaniyatning tarkibiy qismi bo'lib, uning ishtirokchilari tomonidan azaldan murakkab urf-odatlar va udumlar bajarilgan. "Nikoh" so'zining o'zbek tilida ikki xil lug'aviy ma'nosi bor. Nikoh (arab. – uylanish, er-xotinning qovushishi) – er-xotinlikni shariat yo'li bilan rasmiylashtirish marosimi va shu marosimda domulla (Imom) tomonidan o'qiladigan shartnoma [16, b.38]. Ya'ni, erkak va ayol turmush qurishining islomga xos diniy shakli bo'lib, shariatda oilaviy munosabatlarni tartibga soladi va nikohga, birinchi navbatda, ikki tomonning majburiyati va huquqlariga asoslangan shartnoma sifatida qaraydi [6, 139-140 b]. Hozirgi vaqtda nikoh ikki xil – dunyoviy va diniy mazmunga ega.

To'ylar tashkil etilishi, mazmun-mohiyati, o'z maqsadi va vazifalariga ko'ra bir qancha turlarga bo'linadi. Ularning har birini ilmiy o'rganish va tahlil etish alohida tadqiqotni talab etadi. Birgina o'zbek xalqini oladigan bo'lsak, bizda nikoh to'yigacha bo'lgan marosim va rasm-rusumlar qadimdan ko'p bo'lgan. Bularga beshik kerti, etak yirtish, quloq tishlatish, og'iz bog'lash, qiz ko'rar, uy ko'rar,

unashar, non sindirish, to'y yuborish, idish qaytdi, bo'g'cha ochar, sabzi to'g'rar kabi rasm-rusumlar kiradi.

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan oqilona siyosat, doimiy iqtisodiy barqarorlik va rivoj, kuchli ijtimoiy himoya, yosh avlodning ta'lim-tarbiyasiga doimiy e'tibor, tarixiy va madaniy merosimizni qadrlash, diniy qadriyatlarimizni hurmat qilish va asrash, ma'naviy tarbiyani mustahkamlash, millatimiz haqiqiy urf-odat va marosimlarini saqlab qolish tufayli O'zbekiston jahon hamjamiyatida o'ziga xos o'rniga va e'tirofiga sazovor bo'lib kelmoqda. M.Asqarov [2] to'g'ri ta'kidlaganidek, xalqimizning ko'p yillar davomida shakllanib kelgan muqaddas an'ana, marosim, urf-odat va ibratli udumlarini saqlab qolish va asrash bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Ammo, to'y/motam/ziyosat marosimlarini kim uchundir "ko'z-ko'z" yoki "kim o'zarga" qilish emas, balki, barcha tadbirlarimizda keng jamoatchilik bilan uyushgan holda, oila, mahalla, jamiyat fikr va takliflarini hisobga olib, ortiqcha isrofgarchiliksiz o'tkazish kerakligini yoshlar ongiga singdirish muhimdir. Bu muammoga Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ham katta e'tibor qaratish zarurligini bir necha bor ta'kidlaganlar.

Akademik A.Asqarov "o'zbekchilik" tushunchasi mohiyatini tushuntirib, o'zbek qiyinchilik bilan bo'lsa ham topgan puliga to'y qilib, elga bepul dasturxon soladi, bu bilan o'ziga ruhan quvvat bag'ishlaydi, rohatlanadi, bu – o'zbekchilik, – deb yozadi [3]. XX asr boshlarida A. Qodiriy tomonidan yozilgan "Baxtsiz kuyov" dramasi bosh qahramon – Solihning "katta to'y" qilishi, to'yni o'tkazish uchun katta miqdorda qarz olgani, qarzni o'z vaqtida to'lay olmay yosh kelin-kuyovning fojeali halok bo'lgani – biz uchun ibrat bo'lishi kerakligini yodda saqlashimiz darkor. Tarix – o'tmishda yo'l qo'yilgan ba'zi xato va kamchiliklar ko'zgusi, ulardan to'g'ri xulosa chiqarish hamda ularni takrorlanishidan ehtiyotlanish, oilamiz, jamiyatimiz, millatimiz, yurtimiz kelajagini yanada porloq bo'lishi uchun muhimdir [3].

Adabiyotlar tahlili. To'y davomida amalga oshiriladigan urf-odatlar va marosimlar tartibi, qatnashchilari, to'y davomida yoziladigan ziyofat turlari va tartibi tasnifi, to'y davomida kiyiladigan marosimiy kiyim-kechaklar va sovg'a-salomlar ta'rifi, to'y yordamida amalga oshiriladigan ijtimoiy hamkorlik va munosabatlar, hududlar bo'yicha umumiy va farqli jihatlar tahlili, to'y-ziyofat berishning iqtisodiy tomonlari va uning oila byudjetiga ta'siri va boshqa ko'plab masalalar turli darajada sovet davridayoq N.P.Lobachyova, N.A.Kislyakov, I.Jabborov va boshqalar tadqiqotlarida yoritilgan [9; 8; 4].

Hozirgi tadqiqotlarga kelsak, M.Asqarov o'zbeklarda to'ylar, ularni o'tkazish uchun qilinadigan katta sarf-harajatlar haqida fikr yuritgan [2]. Sh.Saydamov va S.Qobilovlar maqolasida Jizzax vohasi aholisining nikoh to'yi bilan bog'liq urf-odatlar, an'analari va marosimlarida qadimgi diniy e'tiqodlarning saqlab qolingani va islomiy marosimlarning modernizatsiyalashuvi xususida fikr yuritilgan [13]. Z.Kasimova maqolasida turkiy tilli xalqlarning folklorida o'xshaliklar haqida ma'lumot keltirilgan va bu odatlar maishiy turmush va diniy e'tiqodlar bilan bog'lik ekanligi ko'rsatilgan [7]. M.I.Dusnazarova XX asrdagi nikoh to'yi marosimlarining o'ziga xos jihatlarini tahlil qilgan [5]. M.Xodjanov Qoraqalpog'istonda yashayotgan o'zbeklarning sovcilik marosimlarini tahlil qilgan [15]. N.Matkarimova Xorazm vohasi o'zbeklari nikoh to'yi marosimlarining vohaga xos mahalliy udum va an'analari (xo'n ochish, novvot sindirish, qulluq aytish, olma otish, ko'shayana bichar, taxa tashar, belbog' yechar, kuyov suzildi, rapida go'ydi, kapkir go'ydi) kabi etnolokal xususiyatlarini ochib bergan [11].

Muhokama va natijalar. Odamlarning hayotida muhim bosqichlardan biri nikoh to'yi hisoblanadi. Ko'plab xalqlarda to'y bir qator an'anaviy urf-odatlar va marosimlarga rioya qilgan

holda o'tkaziladi. Bu urf-odatlar ma'naviy va diniy qarashlar bilan bog'langan bo'lib, ramziy ma'no kasb etadi. N.P.Lobachyova ta'kidlaganidek: "an'anaviy nikoh to'yi marosimi turli tarixiy davrlarga mos bo'lgan ijtimoiy va diniy mezonlarning murakkab uyg'unlashuvi bo'lib, xalqning ijtimoiy rivojlanishining zamonaviy darajasiga moslashgan" [10, b.298].

To'ylarni o'tkazishda aniq stsenariy, an'anaviy qoidalar va marosimlarga rioya qilish – o'ziga xos institut bo'lib, yuksak ijtimoiy maqomga va axloqiy-tarbiyaviy maqsadlarga ega. To'ylar xalqning milliy ruhini, ma'naviyatini, milliy madaniyati va dunyoqarashini aks ettiradi. To'ylarni o'tkazish jarayoni ko'plab urf-odatlar va marosimlarni qamrab olib, arxaik elementlarni ham o'z ichiga oladi, ya'ni ularda butparastlik bilan bog'lik e'tiqodlar, otashparastlik ham tasvirlanib, keyinchalik islom, xristianlik va boshqa dinlarning elementlari kiritilgani namoyon bo'ladi. Masalan, sovchilik bosqichida "non sindirish" marosimi qadimgi afsungarlik ko'rinishlari bilan bog'liq bo'lgan.

Vaqt o'tishi bilan to'y jarayonlari evolyutsiyaga uchraydi, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, diniy, madaniy shart-sharoitlar tufayli o'zgarishlarga duchor bo'ladi. Yangicha ijtimoiy shart-sharoitlar vujudga kelsa, ayrim marosimlar o'z ahamiyatini yo'qotishi, o'z funksiyalarini o'zgartirishi, ayrimlari esa umuman yo'q bo'lib ketishi va o'z o'rnini boshqa marosimlarga, ularning demokratik turlariga bo'shatishi mumkin. Markaziy Osiyo (shu jumladan Qozog'istonda ham) respublikalarida sobiq sovet davrida tarixiy-iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar natijasida xalqning dunyoqarashi qisman o'zgarib, an'analarning ayrim elementlari o'z funksiyalarini yo'qotgan edi. Shunga qaramay turkiy tilli xalqlar umumiy genetik ildizlarga va belgilarga ega bo'lgani holda, qadimiy urf-odatlar va marosimlarni saqlab qolgan. Turk dunyosi ko'plab qardosh, va shu bilan birga bir-biridan farq qiladigan etnoslarni birlashtiradi.

Qozog'istonlik olim Murod Aji ta'kidlaganidek, ikki ming yil avval bir tilda so'zlashadigan qabilalarda nafaqat tilga, balki madaniyatga, falsafiy qarashlarga, e'tiqodlarga, tashqi ko'rinishiga, xo'jalik faoliyatlariga oid belgilar namoyon bo'la boshlagan. Ulkan hududlarda istiqomat qilgan turkiy qabilalar urushlar natijasida boshqa etnik madaniyatlar bilan aralashib ketishdi. Boshqa xalqlar bilan geografik jihatdan qo'shnichiligi esa ularning madaniyati va an'alariga ta'sir ko'rsatib, o'zgacha ma'no va mohiyat kasb eta boshladi [12].

Bugungi kunda Markaziy Osiyo va Qozog'iston xalqlarining to'ylar bilan bog'lik urf-odatlari va marosimlari deyarli o'xshash, ammo ayrim urf-odatlarning izchilligida farqlar uchraydi. Ko'pchilik tadqiqotchilar turkiy tilli xalqlarda nikoh to'ylari odatda uch davrdan iborat ekanligini, har bir davrda ko'plab marosim harakatlari bajarilishini ta'kidlaydilar. Shunday bo'lsa-da, mintaqaning turli joylaridagi odatlar ayrim lokal xususiyatlarga ega. To'yni har bir bosqichi ziyofat, raqslar, qo'shiqlar bilan birga o'tkaziladi. Nikoh to'yi 3ta bosqichdan iborat bo'lib, har birida o'ziga xos marosimlar bajariladi:

- 1) sovchilik – maslahat, kuyov va kelinning tanishuvi va uchrashuvlari, kuyov tomonidan qalin, kelin tomonidan sep tayyorlanishi, fотиha, kuyov to'yi va sarpo jo'natish;
- 2) nikoh to'yi – kelinning uyida qizlar bazmi (qiz maylis), kuyovni jo'ralari bilan kelishi, nikohning o'qilishi, kelinni olib ketish, kuyov uyida katta to'y – bazm;
- 3) to'ydan keyingi marosimlar – yuz ochish, kelin salom, ota ko'rdi, chaqiriq.

Demak, har bir bosqichning o'ziga xos urf-odatlari va marosimlari bor (masalan, kelinni yig'lab ota-onasi, qarindoshlari bilan xayrlashuvi, kuyov uyiga kirishdan oldin gulxan atrofida aylanish, uchoq boshidagi marosimlar, chimildiqdagi marosimlar va hokazo). M.I.Dusnazarova Surxon vohasida nikohning "bel quda", "etak yirtish" kabi shakllari mavjud bo'lganini yozadi. «Bel quda»

udumida qalin oshna og'aynilar xotinlarining xomiladorlik davrida dunyoga keladigan bo'lajak o'g'il va qizlarini bir-biriga atab qo'yganlar. Dunyoga kelgan bu farzandlar o'sib-ulg'aygach bir-birlari bilan turmush qurishgan. «Etak yirtish» marosimida esa tug'ilgan o'g'il va qizni ota-onalarining kelishuvi, roziligi asosida chaqaloqlarni chaqaloqlik davridayoq unashtirib qo'yilgan. O'g'il va qizning chaqaloqlik davrida bunday unashtirishlari Markaziy Osiyoning boshka xalqlarida ham mavjud bo'lib, «quloq tishlash», «beshikdagi unashtirish», «beshik kerti» deb nomlangan [5, b.41]. Shuningdek, qadimdan mavjud bo'lgan nikohning levirat, sororat shakllari bilan «qarshi quda», «kuch kuyov», «ich kuyov», «voyg'voy nikoh» kabi turlari ham bo'lgan. Masalan, «qarshi quda» udumi bo'yicha ikki xonadon o'zaro bir-birlariga qiz olib, qiz berishgan, «ich kuyov» udumida esa o'g'il farzandi yo'q xonadon qiz berayotganda, kuyov qaynotasining uyida ich kuyov bo'lib yashaydi. Beshik kerti, beshik ketdi, quloq tishlash – bolalarni beshikdaligidayoq unashtirib qo'yish odati. O'tmishda bir-biriga yaqin oilalarning birida o'g'il, ikkinchisida qiz tug'lsa, ular voyaga yetganlarida birga turmush qurishlari belgilab qo'yilardi. Otaonalar kelishib, qizning boshini bog'lab qo'yish uchun beshik dastasiga pichoq bilan kertib – belgi qilib qo'yganlar. Beshik kerti urug'qabilachilik davrining qoldig'i. Qo'shni, urug', qabilalar o'zaro do'stlikni mustahkamlashda Beshik kerti dan foydalanganlar. Beshik kerti qilingan farzandlar voyaga yetganlarida turmush qurishlari shart bo'lgan [14, b.151].

R.S.Abdullayev, I.Altinsarin, N.P.Lobachyova va boshqalar nikoh to'yining ana shunday – sovchilik, nikoh to'yi, sharaflash – bosqichlarini ajratishadi. Z.Kasimova esa 5ta davrdan iborat umumturkiy tizimni taklif qiladi [7, b.145]:

- 1) kelin-kuyovni tanishtirish;
- 2) sovchilik;
- 3) to'ydan oldingi marosimlar;
- 4) bevosita nikoh to'yi marosimlari;
- 5) to'ydan keyingi marosimlar.

Xulosa. Agar Markaziy Osiyo va Qozog'iston xalqlarining nikoh to'ylaridagi urf-odat va marosimlarni qiyosiy-solishtirish jihatidan tahlil qilsak, shuni qayd etish mumkinki, o'zbeklar, qozoqlar, qirg'izlar, tojiklar, qoraqalpoqlar, turkmanlar, uyg'urlarda nikoh to'yi marosimlari bir xil marosimlardan iborat bo'lib, faqat ayrim o'ziga xos elementlar bilan ajralib turadi. Nikoh to'yi marosimlarida to'y boshlanishidan to'y tugagunicha bo'lgan davrdagi marosimlarni uch guruxga: nikoh to'yigacha o'tkaziladigan urf-odatlar, nikoh to'yi davrida o'tkaziladigan udumlar va nikoh to'yidan keyin o'tkazilgan rasm-rusumlarga bo'lish mumkin.

Qayd etish mumkinki, xalq orasida urf bo'lgan marosimlar besabab emas, ular ma'lum bir maqsad va niyatni ko'zlagan holda o'tkaziladi hamda ushbu jarayonda barcha xatti-harakatlar ko'zlangan maqsadga tezroq yetishish uchun qaratilgan bo'ladi. Udumlar, urf-odatlar, marosimlar insonning dunyoga kelishidan boshlab to vafotiga qadar davom etadi, ya'ni inson hayotining asosiy mazmunini qamrab oladi. Shu sababli inson qayerda va qanday muhitda yashashidan qat'iy nazar, avloddan-avlodga ma'naviy va amaliy meros sifatida o'tib kelayotgan oilaviy, milliy qadriyat darajasida qadrlanib, avaylab-asrab kelinayotgan marosimlarning asosiy ijrochisi, davomchisi va kelajakka uzatuvchisidir [14, b.151].

Adabiyotlar:

1. Абдуллаев Р.С. Обряд и музыка в контексте культуры Узбекистана и Центральной Азии. – Ташкент: DEZA, 2006. – 336 с.
2. Асқаров М. Тўй: кеча, бугун ва эртага: этнографик таҳлил. // <https://www.uzanalytics.com/jamiyat/4046/>
3. Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқ иш тарихи. – Т., 2015. – 672 б.
4. Джаббаров И. Узбеки. – Т.: Шарқ, 2007. – С. 167-168, 244-248.
5. Дусназарова, Мавжуда Илямоновна (2022). Мустақилликдан аввалги даврларда никоҳ-тўй маросимларининг ўзига хос илмий жихатлари. // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (12), 38-51.
6. Ислон. Справочник / Усмонов М.А. таҳрири остида – Т., 1987. 2-нашри. – Б. 139-140.
7. Касимова З. Свадебно-обрядовый фольклор тюркоязычных народов. // Тюркология. 2016. №3. – С.141-148.
8. Кисляков Н.А. Очерки по изучению семьи и брака у народов Средней Азии и Казахстана. – Л., 1969. – С. 12-13.
9. Лобачева Н.П. Свадебный обряд хорезмских узбеков // Краткие сообщения Института этнографии АН СССР. Вып. XXXIV. – М.,1960.
10. Лобачева Н.П. Различные комплексы в свадебном церемониале народов Средней Азии и Казахстана // Домусульманские верования и обряды в Средней Азии. – М.: Наука, 1975. – 340 с.
11. Маткаримова Н.М. Хоразм воҳаси ўзбекларининг никоҳ тўйи маросимлари (XX аср ва мустақиллик даври). Фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Т., 2020. – 170 б.
12. Мурад Аджи. Кипчаки. Древняя история тюрков и Великой степи. Кн.1. – Семей: Международный клуб Абая, 2001. – 168 с.
13. Сайдамов Ш.А., Қобилов С.И. Жиззах воҳаси аҳолисининг никоҳ тўйи билан боғлиқ урф-одатлари // Science and Innovation. Volume 1. Issue 7. – P. 234-240.
14. Umarova A. O'zbeklarda bolalar bilan bog'liq udumlar. / European science international conference: MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS. Vol.1, No.3. 2024. - P. 146-152. <https://esiconf.org/index.php/MRIATS/article/view/1058>
15. Ходжанов М. Қорақалпоғистон ўзбекларининг совчилик урф-одатлари. / Материалы этнографической научно-практической конференции «Этнографические исследования в Каракалпакстане: история и современность», 1(1). – Нукус: Илим, 2023. 132 с. – Б.84-86.
16. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмалари. Ж. Ш. Н – Тартибли – Т., 2006. – Б. 38.